

SAYFI SAROYI ADABIY MEROSIGA BIR NAZAR

Boysotov Muzaffar

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mumtoz adabiyotimizning yorqin siymolaridan biri Sayfi Saroyining hayoti, ijodi va bizgacha yetib kelgan adabiy merosi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: *Sayfi Saroyi, "Gulistoni bit-turkiy", Sa'diy, "Guliston", erkin tarjima, "Suhayl va Guldursun", Oltin O'rda, Saroy shahri, Mamluklar davlati.*

ABSTRACT

This article provides information about the life, work and literary heritage of Sayfi Saroyi, one of the brightest figures of our classical literature.

Keywords: *Sayfi Saroyi, "Gulistoni bit-turkiy", Sa'di, "Guliston", free translation, "Suhayl and Guldursun", Golden Horde, Saroyi city, Mamluk state.*

KIRISH

Mumtoz adabiyotimizning atoqli vakillaridan biri Sayfi Saroyi XIV asrda yashab ijod qilgan. Manbalarga e'tibor qaratsak shoirning 1321-yili Qamishli qishlog'ida tug'ilib, taxminan 1396-yili Misrda vafot etganligiga guvoh bo'lamiz. "Saroyi" taxallusidan Oltin O'rda davlatining poytaxti Saroy shahrida ijod qilganligi ma'lumdir. Sayfi Saroyi umri davomida Movarounnahrda va bir muddat Turkiyada, vaziyat taqozosi bilan Misrdagi Mamluklar davlatiga ketishga majbur bo'ladi. Sayfi Saroyining ilmiy merosi to'la holda bizgacha yetib kelmagan.

Sayfi Saroyining adabiy merosidan oz qismi yetib kelgan. Uning bir necha g'azallari, qasida, qit'a, ruboiylari (uchta forscha ruboiysi ham), "Suhayl va Guldursun" dostoni va Sa'diy Sheroziyning "Guliston" (1258-yili yozib tugallagan) asarining o'zbek tiliga qilgan erkin taqimasi yetib kelgan¹.

Qamishli yurt manim tuvg'on elimdi,

Bilik g'urbatg'a kelturg'on bilimdi.

Kelib o'ldim Saroyda she'r fidoyi,

Saroyning shoiri, elning gadoyi.

Shoir birinchi misrada o'zi tug'ilgan yurt Qamishli haqida xabar bermoqda. Nasrullo Davron "Gulistoni bit-turkiy"ni nashrga tayyorlab, o'zbek kitobxonlariga taqdim etar ekan, bu joyni Xorazm viloyatidagi Sariqamish qishlog'i deb taxmin qiladi. N.M.Mallayev ham shu fikrda bo'lgan edi².

¹ Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. 271.

² Yuqoridagi manba. 272.

Sayfi Saroyining ijodi haqida soʻz borganda “Gulistoni bit-turkiy” asari birinchi tilga olinadi. Shoir fors shoiri va mutafakkiri Saʼdiy Sheroziyning “Guliston” asarini ijodiy tarzda turkiy tarjima qiladi. Ushbu tarjima orqali shoir mumtoz adabiyotimiz tarixida munosib oʻrin oladi. Lekin mana shunday ijodiy tarjima ilm ahliga ancha yillar oʻtib yetib boradi. “Gulistoni bit-turkiy” asari (yaʼni “Turkiy guliston”) yozilganiga uzoq muddat oʻtgan boʻlsa-da ilm ahli 1915-yilda tanishadi.

1915-yili Turkiyada nashr qilinadigan “Milliy tatabbular majmuasi” jurnalida venger olimi Tori Yozef Saʼdiy “Guliston”ining turkiy tilga eski bir tajimasi Gollandiyadan topilgani toʻgʻrisida xabar beradi. 1950- yili Amsterdamda tibbiyot tarixiga oid Xalqaro anjumanda ishtirok etgan professor Faridun Nafiz Uzluk Leyden universiteti kutubxonasida mazkur qoʻlyozma bilan tanishib, fotonusxasini oladi va 1954-yili Anqarada kichik kirish soʻz bilan qoʻlyozmaning faksimilesini nashr ettiradi. Qoʻlyozma yaxshi saqlangan, ammo xatolari koʻp. Faridun Nafiz Uzlukning aytishicha, qoʻlyozma Sayfi Saroyining dastxatidir. Qoʻlyozmaning birinchi sahifasida forscha va turkiyeha yettita sheʼr bor. Sheʼrlaming mualliflari ham, dastxatlari ham har xil. Birinchi toʻrtlik Mahmud Gulistoni degan shoirniki boʻlib, Iroqdan magʻlubiyatga uchrab qochib kelgan shahzoda Ahmadga bagʻishlangan. Qoʻlyozmaning uchinchi sahifa 273 sida mazkur tarjimani Saroy shahridan Sayfi otligʻ kishi amir Tayxasga bagʻishlagani toʻgʻrisida aytiladi. Toʻrtinchi sahifadan Saʼdiy “Guliston”ining tarjimasi boshlanadi. Soʻng Sayfi Saroyi tarjimani toʻxtatib, oʻz sheʼrlarini qoʻlyozmaga kiritadi. Keyin mazkur asarni tarjima qilish sabablarini bayon etadi. Qoʻlyozmaning 11-14-sahifalarida Sayfi Saroyi 87 baytdan iborat sheʼrini keltiradi³.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Gulistoni bit-turkiy”ning ushbu qoʻlyozmasining oxirgi betida asarning yozib tugallangan sanasi keltirilgan. Unda “Guliston”ning tarjimasi hijriy 793-yilning shavvol oyi, milodiy hisobda 1391-yilning avgust oyiga toʻgʻri keladi. Oʻsha vaqtda Sayfi Saroyi taxminan 70 yoshda boʻlgan. Saʼdiy Sheroziyning “Guliston” asarini S.Saroyidan keyin Ogahiy va Mulla Murodxoʻja (1909-yil) ham tarjima qilgan.

“Gulistoni bit-turkiy” kitobining tarkibiy tuzilishi Saʼdiyning “Guliston”idan farq qilmaydi. Ushbu ikki asar ham sakkiz bobdan tashkil topgan. Quyida “Gulistoni bit-turkiy”ning boblarini keltiramiz:

1-bob. Salotin siyrati ichinda turur

2-bob. Fuqaro axloqi ichinda turur

3-bob. Qanoat fazilati ichinda turur

³ Yuqoridagi manba. 274

4-bob. Sukut foydasi ichinda turur

5-bob. Ishq dag'i yigitlik sifati ichinda turur

7-bob. Tarbiyat ta'siri ichinda turur

8-bob. Suhbat adablari ichinda turur

Guvohi bo'lganimizdek asar sakkiz bobga bo'linadi va debocha qismida "Gulistonni" tarjima qilish sababini keltiradi: "Iliq yoz kunlarida bir kun bo'ston ichinda, gular orasinda bir necha zarif (nozikfahm) olimlar bilan ovturub, insho ilmindan bahs qilib, abyoti g'arib (ajoyib) va ash'ori ajib (qiziq) ovqudum esa, ul olimlarning ulusi aruz ilmindin bir mushkul baytning taqattu'in savol etii. Filhol (darrov, tezda) javobin eshitib aytti: "ey adibi g'arib, senga bir muvofiq nasihatim bor, qabul qilsang, xayr bo'lgay". Ayttim: "Buyuring". Aytti: "Shayx Sa'diy "Guliston" in turkiy tilga tarjima qilsang, bir sohib davlat er otina, misroi yodgoring jahonda qolsun deb" olimlar davrasida Sayfi Saroyiga tarjima qilish taklifi beriladi. Shu sabab asar tarjimasiga kirishadi va erkin tarjima asar dunyoga keladi.

O'tgan asrning olmishinchi yillarida Qo'qon shahri yaqinidan Sayfi Saroyining "Yodgornoma" topiladi. Bu asar "Suxayl va Guldursun" nomi bilan shoir ijodidan o'rin olgan. Ushbu asarda shoir Oltin O'rda davlatida urush va nizolar sabab vatanni tark etishga majbur bo'lganligi aytiladi:

*O'sub tufrog'im uzra nayzalar, ban evdin ayrildim,
Vatandin benishon o'ldim-da, o'zga yurtga evrildim.
Nechuk falak javr ayladi, qanday gunohim bor,
Ilohim, o'yla kim javring, ban elga sodiq ul erdim.*

Adabiyotshunos olimlar Sayfi Saroyining she'riyatidagi ma'no-mohiyatidan kelib chiqib, shunday yuqori saviyali shoirning devoni bo'lishi kerakligi ta'kidlaydilar. Ammo hozircha bizga devon tartib berganligi haqida ma'lumotlar yetib kelmagan.

Izlanishlarimiz davomida Sayfi Saroyining adabiy merosi Turkiyada ancha katta qiziqish bilan o'rganilganligiga guvoh bo'ldik. Jumladan 2017-yilda "Seyfi sarâyi'nin gülistan tercümesi'nde geçen Atasözleri ve türkiye türkçesindeki karşılıklari" va 2019-yilda esa "seyf-i sarâyi'nin gülistan tercümesi'nde metaforlar" mavzusida dissertatsiya himaya qilinganligi S.Saroyi ilmiy merosining bugungi kunda ham nafaqat yurtimizda balki Turkiyada ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib, Sayfi Saroyi ijodini o'rganish orqali Sa'diy Sheroziy ijodini, fors tilida yozilgan "Guliston" asarining turkiy tilga erkin ijodiy tarjimanisini o'rganamiz. Ushbu tarjima orqali Sayfi Saroyining o'sha davr ilmiy-adabiy jamoatchiligi orasida katta mavqeyga ega ekanligini anglashimiz mumkin. Shoir ijodi tarbiyaviy-axloqiy

ruh ancha sezilib turadi. Ayniqsa, “Gulistoni bit-turkiy” asaridagi hikoyatlar orqali bugungi kun yosh avlod tarbiyasida munosib foydalanishimiz ham mumkin. Hajman qisqa shaklda yozilgan hikoyatlar ma’nosiga e’tibor bergan kitobxon, katta xulosalar oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarimigacha). – Toshkent: Sano-standart, 2017.
2. Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrdan XVI asrning oxirigacha). – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
3. Sayfi Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Nasharga tayyorlovchi Nasrullo Davron. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.